



**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING UMUMIY TA'LIMGA
TAYYORLOV JARAYONIDA TUTGAN O'RNI HAMDA TA'LIM
TASHKILOTLARIDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TARBIYA
JARAYONINI TASHKILLASHTIRISH**

Sultanova Nazokat Ikram qizi

*Nukus Davlat pedagogika instituti
1-bosqich magistranti
sultanovanazokat706@gmail.com*

Annotatsiya: Uy qurish poydevordan boshlansa, shaxs kamoloti bog`chadan boshlanadi. Bola umumiy o`rta ta`limga qadam bosgunga qadar bosib o`tadigan yo`l bu bog`chadir. Bog`chada olingan tarbiya, ta`lim, insoniy xususiyatlar bola psixologiyasida o`chmas iz qoldirib, tom ma`noda, uning kelajak taqdirini belgilab beradi.

Kalit so`zlar: Bog`cha, ta`lim, tarbiya, psixologiya, maktab, metod.

Аннотация: Если строительство дома начинается с фундамента, то развитие человека начинается с детского сада. Детский сад – это путь, который проходит ребенок до поступления в общее среднее образование. Воспитание, образование, человеческие качества, полученные в детском саду, оставляют неизгладимый след в психологии ребенка и буквально определяют его дальнейшую судьбу.

Ключевые слова: Детский сад, образование, воспитание, психология, школа, метод.

Abstract: If building a house starts from the foundation, the development of a person starts from kindergarten. Kindergarten is the path that a child takes until he enters general secondary education. The upbringing, education, and human characteristics received in the kindergarten leave an indelible mark on the child's psychology and literally determine his future destiny.

Key words: Kindergarten, education, upbringing, psychology, school, method.

Mamlakatimizda mustaqillikning birinchi yillaridan boshlab ta`lim sohasida eski yondashuvlardan butunlay voz kechilib, yangicha tamoyillarga, milliy qadriyat va an`analaramizga, jahon mamlakatlarining ilg`or tajribasiga asoslanib, hayotimizni tubdan yangilash, uzoq va davomli maqsadlarni amalga oshirish uchun ta`lim va tarbiya sohasiga ustuvor ahamiyat qaratilip kelinmoqda.

O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan bo`lib ushbu qonun 5 bo`lim va 34 moddadan iborat. Ushbu Qonun fuqarolarga ta`lim, tarbiya berish, kasb-hunar o`rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta`minlashga qaratilgan.

Qonunda Maktabgacha ta`limga quyidagicha ta`rif berilgan: Maktabgacha ta`lim odatda davlat va nodavlat maktabgacha ta`lim muassasasi, qisqa muddatli



guruqlar tuzish orqali amalga oshiriladi. Bu ta`lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog`chasida va mulk shaklidan qat`iy nazar boshqa ta`lim muassasalarida olib boriladi, xamda u bola shaxsini sog`lom va yetuk, maktabda o`qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko`zlaydi.

Uzluksiz ta`limni tashkil etish va rivojlanirish prinsiplari:

- ta`limning ustuvorligi – uning rivojlanishining birinchi darajali ahamiyatga ega ekanligi, bilim, ta`lim va yuksak intellektning nufuzi;
- ta`limning insonparvarlashuvi – inson qobiliyatlarining ochilishi va uning ta`limga nisbatan bo`lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta`minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o`zaro munosabatlarining uyg`unlashuvi;
- ta`limning milliy yo`naltirilganligi – ta`limning milliy tarix, xalq an`analari va urf- odatlari bilan uzviy uyg`unligi, O`zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta`limni milliy taraqqiyotning o`ta muhim omili sifatida e`tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash;
- iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta`limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Maktabgacha ta`lim uzluksiz ta`limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog`lom va rivojlangan shaxs bo`lib shakllanishini ta`minlab, o`qishga bo`lgan ishtiyoqini uyg`otib, tizimli o`qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo`lgan maktabgacha ta`lim davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta`lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta`limning maqsadi – bolalarni maktabdagi o`qishga tayyorlash, bolani sog`lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo`lib shakllantirish, qobiliyatlarini ochib berish, o`qishga, tizimli ta`limga bo`lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir.

Maktabgacha ta`lim tizimi

Maktabgacha ta`lim muassasalari – O`zbekiston Respublikasidagi ta`lim muassalarining turi bo`lib, turli yo`nalishdagi maktabgacha bo`lgan davrdagi umumta`lim dasturlarini amalga oshiradi. Maktabgacha ta`lim muassasalari 2 yoshdan 7 yoshgacha bo`lgan bolalarni tarbiyalashni, o`qitishni, nazorat qilishni, parvarishlashni va sog`lomlashtirishni ta`minlaydi.

Maktabgacha ta`lim tizimi quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

- parvarishlash va sog`lomlashtirish;
- tarbiya;



-qarov va nazorat;

-ta`lim.

Maktabgacha ta`lim muassasalari, faoliyat yo`nalishiga ko`ra, quyidagi turlarga bo`linadi:

- Bolalar yaslisi, bolalar yasli bog`chasi, bolalar bog`chasi, uydagi bolalar bog`chasi (mustaqil muassasa yoki filial sifatida).
- Maktabgacha tarbiya va boshlang`ich ta`lim mussasasi (bolalar bog`chasi-maktab).
 - Tarbiyalanuvchilarni bir yoki bir nechta yo`nalishda (til, badiiy estetik, sport va boshqalar) tarbiyalovchi maktabgacha ta`lim muassasalari.
 - Tarbiya jismoniy va ruhiy rivojlanishdagi og`ishlarni kvalifikatsion yaxshilovchi tiklovchi turdag'i bolalar bog`chasi.
 - Tibbiyot gigiyena, profilaktika va sog`lomlashtirish, tadbir va proseduralarini amalga oshiruvchi zaiflashgan bolalarni nazorat qilish va sog`lomlashtirish bog`chasi.
 - Birlashtirilgan turdag'i bolalar bog`chasi (birlashtirilgan turdag'i bolalar bog`chasiga rivojlantiruvchi, tiklovchi va sog`lomlashtiruvchi guruhlar umumlashtirilgan ko`rinishda kiradi).

Uzluksiz ta`lim tizimining birlamchi bo`g`ini hisoblangan ushbu soha har tomonlama sog`lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda g`oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, tahlillar shuni ko`rsatdiki, oxirgi yillarda turli omillar ta`sirida maktabgacha ta`lim tizimida bolalarni maktab ta`limiga tayyorlash borasida rivojlanish o`rniga, orqaga ketish holatlari, yil davomida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta`lim muassasalariga qamrab olish ko`rsatkichlari o`sishi tendensiyasi kuzatilmadi. Aksincha, so`nggi 20 yil davomida davlat tasarrufidagi maktabgacha ta`lim muassasalari soni 45 foizdan ziyodroq kamayib, bugungi kunda respublika bo`yicha bolalarning maktabgacha ta`lim bilan qamrab olinishi 30 foizni tashkil etdi. Bunga mavjud maktabgacha ta`lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi zamonaviy talablarga javob bermasligi, tizimda variativ dasturlar, bolalarni maktabga tayyorlash bo`yicha muqobil shakllarning ishlab chiqilmaganligi, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi yetarli darajada o`rganilmaganligi, faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlarning aksariyati oliy ma`lumotli emasligi, ta`lim sifati monitoringi yuritilmaganligi kabi omillar sabab bo`ldi.

Davlatimiz rahbari O`zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 26 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimdagi nutqida: “Maqsadimiz kelgusi 3-4



yilda mamlakatimizdagi bog`cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta`lim muassasalariga to`liq qamrab olishdan iborat va biz bunga albatta erishamiz”, - deb ta`kidlagan edi.

Darhaqiqat, o`tgan qisqa vaqt mobaynida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017- 2021 yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi,

«Maktabgacha ta`lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi, «O`zbekiston Respublikasi maktabgacha ta`lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi farmon va qarorlari, shuningdek, “Maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish bo`yicha 2017-2021 yillarga mo`ljallangan Dasturi hamda respublikada maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish bo`yicha «Yo`l xaritasi» asosida misli ko`rilmagan ishlar amalga oshirildi.

Barcha sohalar qatori tizimda amalga oshirilayotgan o`zgarishlar, farmon va qarorlarda belgilangan vazifalarning ijrosi boshqa sohalar qatori Davlatimiz rahbarining doimiy e`tiborida bo`layotganligini guvohi bo`lmoqdamiz.

Maktabgacha ta`lim tizimining umumiy ta`limga qo`yiladigan poydevor. Poydevor o`rnatalishini qator rivojlangan xorij mamlakatlarining tajribasidan o`rganib, hayotga tadbiq etish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta`lim tizimi Germaniya ta`lim tizimida muhim bosqich hisoblanadi. Maktabgacha ta`lim bolalar bog`chasi (Kindergarten)da amalga oshiriladi. Bolalar bog`chasiga 3-6 yoshdan maktab yoshigacha borishadi. Rivojlanishdan orqada qolgan yoki yoshi mos bosqichga etmagan bolalar maktabgacha sinflarda (nem. Vorklassen) va maktablar qoshidagi bolalar bog`chasida (nem. Schulkindergarten) tahsil oladilar. Bu bog`chalar alohida qoidaga ko`ra yoki maktabgacha sektorga yoki boshlang`ich ta`lim sektoriga bo`ysinadi. Germaniyada 3 yoshdan 6 yoshgacha bo`lgan bolalarning 80% bog`chalarga qatnaydilar. Bolalar bog`chasi olmonlar boshlab bergen va ko`pgina xorijiy mamlakatlar tomonida o`rganilib, qabul qilingan muassasadir. U yuqorida ta`kidlaganimizday, davlat tizimiga emas, balki yosh avlodni qo`llab-quvvatlash muassasalari tizimiga kiradi. 1996 yildan boshlab bolalar bog`chasiga qatnash uchun huquqiy me`yorlar ishlab chiqildi. Bolalar bog`chasiga farzandlarni berish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bolalar bog`chasiga qatnash uchun otaonalardan ularning daromadiga qarab ma`lum miqdorda to`lov olinadi.

Polshada maktabgacha ta`limni bolalar bog`chasida yoki maktabdagagi



maxsus sinflarda oladi.

«Nolovoy sinf» 6 yoshdagi hamma bolalar uchun majburiydir. Hamma bog`chalarda polyak bolalari maktabda o`zini qanday tutishi kerakligi haqida o`rgatib boriladi. Haqiqiy maktabga tayyorgarlik ko`rish jarayonida bolalar o`qishni, yozishni va chizishni o`rganadilarda. Jismoniy tayyorgarlikka ko`p vaqt berilgan. Hamma mashg`ulotlar o`yin tarzida olib boriladi. Bolalar bog`chaga 3 yoshdan boshlab boradi. Ota-onalar bola tarbiyasini tajribali pedagoglarga ishonishadi, hattoki uylari bog`chadan uzoq bo`lsa ikki haftalab qolishi mumkin. Yuqori narxlarda shaxsiy bog`chalar faoliyat yuritadi hamda ular murakkab dasturlar asosida bolalarni maktabga tayyorlaydi. Xorijiy tildan bir yoki ikkitasi o`rgatiladi. Oilada boshlang`ich ta`lim dasturini o`zlashtirishiga alohida e`tibor qaratiladi.

Buyuk Britaniyada 3 yoshdan 5 yoshgacha bolalar bolalar bog`chalari va maktabgacha sinflarga borishi mumkin: davlat (nursery school playgroup) yoki xususiy (kindergarten).

Yaponiya bog`chalarida bolalarni 8 kishilik kichik guruuhlar—xanlarga bo`ladi. Bu bolalarga bog`chada —o`z ish o`rni ajratiladi, ular o`z xanlariga nom tanlaydilar. Shu tariqa eng kichik yoshdan jamoada ishlashni o`rgatadilar. Bu guruhdagi har bir o`quvchi guruhda o`z o`rniga ega bo`lishi lozim. Bunday xanlar keyingi ta`lim bosqichida ham qo`llaniladi. O`rta maktabda xanlar doimiy emas, ular yangi sharoitlarga tezroq ko`nikish uchun har 5 oyda o`zgartirib turiladi. Yaponiya bog`chalariga 3-5 yoshdagi bolalar qabul qilinadi. Bolalar bog`chalarining maqsadi bolalarning aqliy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik va ichki tartib ko`nikmalarini tarbiyalash, jamiyat hodisalariga to`g`ri munosabatda bo`la olishni o`rgatishdan iborat. Shuningdek, og`zaki nutq, so`zlarni to`g`ri qo`llashni o`rgatishga ham katta e`tibor beriladi. Ertaklar, kitoblar, musiqa, sport o`yinlari, rassomlik kabi shaxsning ijodiy xususiyatlariga qiziqish uyg`otiladi. Hozirgi kunda maktabgacha tarbiya muassasalariga 60% bolalar jalb etilgan. Boshlang`ich ta`limga erta qabul qilishga o`tish maqsadida 4-5 yoshdagi bolalarning barchasini bolalar bog`chasiga jalb qilish ko`zda tutilmoqda. Bolalar bog`chasi Yaponiyada vatan fuqarosini shakllantirish tizimining 1- bosqichi hisoblanadi. Mustaqil faoliyat, jamoaviy ong, ijtimoiy mas`uliyat ko`nikmalarini shakllantirishga alohida e`tibor qaratiladi. Bolalar bog`chasingning asosiy vazifasi-bolani maktabga tayyorlashdir. Bu erda rasm, musiqa, ritmika, jismoniy tarbiya bo`yicha mashg`ulotlar o`tiladi.



Individuallik, u qanchalik yaxshi bo`lmasin, o`quvchilarni o`ziga jalg qilmaydi, bolalar jamoasi tomonidan qabul qilinmaydi.

Janubiy Koreyada bolalar bog`chasi umumta`lim turiga kirmaydi. Ota-onalar farzandlarini xususiy maktabgacha muassasalarga beradilar. Bu muassasalarda mashg`ulotlar koreys tilida, ingliz tilida, ba`zilarida faqat ingliz tilida olib boriladi. Bolalar bog`chasiga 3 yoshdan

5 yoshgacha qabul qilinadi. Bolalar bog`chasingiz asosiy vazifasi oilalarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Bog`chalarda asosan musiqa, rasm, hisoblash darslari o`tiladi. Koreys bog`chalarida bolalarda mustaqillikni shakllantirishga katta e`tibor beriladi. Bolalar yoshi orasidagi farq 3 yilgacha bo`lishi mumkin.

Xitoyda maktabgacha ta`lim bolalar bog`chalari va maktabacha ta`lim muassasalari hisoblanadi va 3-6 yoshli bolalar qabul qilinadi. Maktabgacha ta`limining maqsadi bolani maktabga o`qishiga tayyorlashdan iborat bog`chasi mavjud bo`lib, ular davlat va xususiy muassasalarga bo`lingan. Hozirgi kunda xususiy bog`chalar soni jami bolalar bog`chalarining 30 % ini tashkil etadi. Maktabgacha ta`lim Xitoyda jamiyatning birgalikdagi sa`y-harakatlari natijasida amalga oshiriladi. Davlat mavjud qonunlar asosida bolalar bog`chalarini ochishga xohishi bo`lgan tashkilotlar, nodavlat-notijorat muassasalar, hamda alohida shaxslarni qo`llab-quvvatlaydi.

Xitoyda bolalar bog`chasi katta bo`lib, o`rtacha 270 bola va 60 ta tarbiyachilar jamoasidan iborat. Guruhda 26 ta bola bo`lib, ularning bir qismi bog`chada kunduzgi soat 8:00 dan 18:00 gacha bo`ladilar va kechqurun uygaga ketadilar. Bir qismi (5%) kechasi ham qoladilar. Chorshanba va shanba kunlari uygaga ketadilar. Bog`chaga qabul soat 7:45 da boshlanadi.

Buyuk Xitoy filosofi Konfutsiy “Bolalar to`g`ri intizomli bo`lib tug`ilmaydilar: ularning xarakterlari tajribada shakllanadi, ustoz esa to`g`ri tarbiyaga mas`uldir. Tarbiyachilar o`ta bosiq, qat`iyatli bo`lishlari lozim”,- deb ta`kidlagan. Xitoy maktabgacha ta`lim tizimini qattiqqo`lligi uchun tanqid qilishadi. Tarbiyachilar bolalarning tartibini nazorat qiladi va chegaralaydi. Bolalar mashg`ulotlarda nofaol, kattalar fikriga mutlaq qo`shiladilar. Lekin ota-onalar tarbiyachilarni o`z kasbining ustalari deb bilishadi, farzandlarini tarbiyachisiga to`liq ishonishadi. Xitoy bolalaridagi qat`iylik va mehnatsevarlik an`anaviy fazilatlarga aylangan.

Xorij tajribalarining har biridan tegishli xulosalar chiqarish mumkin. Bunda



xalqimiz mentalileti, shart-sharoitlarini inobatga olish maqsadga muvofiq. Yapon bog`chalari metodiga ko`ra 8 kishilik guruh asosida ish olib borish maqsadga muvofiq, kam sonly bolalar bilan ishslash bolaga ta`sir etish doirasini kengaytiradi. Bolaga fikrlash imkoniyatini talab darajasida berish uning ongini o`stiradi va mustaqil fikrlashga o`rgatadi. Shuningdek Yevropa bog`chalaridagi jismoniy faollikni hayotga tadbiq etish bolalarni maktabgacha yetuk, tayyor holga kirib borishiga zamin yaratadi. Ta`lim tizimi zanjir bo`lsa, uning boshi maktabgacha ta`limdir, maktabgacha ta`limi to`g`ri yo`lga qo`yilgan mamlakatning yoshlari yetuk bo`lib yetishishi muqarrar.

REFERENCS

1. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta`lim tizimini yanada takomillashtirish chora- tadbirlari to`g`risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr
2. Юсупова П. Мактабгача тарбия педагогикаси. Т.: Ўқитувчи. 1993.
3. Xasanboeva O.U. vaboshq. Maktabgacha ta`lim pedagogikasi. Т.: Ilm ziyo. 2006.
4. Sh.A.Sodiqova “Maktabgacha ta`limning me`yoriy asoslari”. “Tafakkur sarchashmalari” Т.: 2013 y
5. N.M.Kayumova “Maktabgacha ta`limning me`yoriy asoslari”. “TDPU” nashriyoti T.: 2013 y
6. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo`llanma. T:, 2001.
7. F.Qodirova, SH.Toshpo`latova, M.A`zamova. “Maktabgacha ta`limning me`yoriy asoslari”.-T., “Ma`naviyat”. 2013
8. Sh.Shodmonova. maktabgacha ta`lim pedagogikasi. fan va texnologiya. -T:, 2008.
9. www.tdpu.uz
- 10.www.pedagog.uz
- 11.www.Ziyonet.uz